

O'ZBEKISTONDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING IJTIMOIY-IQTISODIY ASOSLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Maxmudov N.I.

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
magistratura tinglovchisi*

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda Jamoat xavfsizligini ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini rivojlantirish masalalari, uning hozirdagi holati hamda unga doir amalga oshirilayotgan ishlar muhokama qilingan hamda hozirgi vaqtda mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy sohasida amalga oshirilayotgan isloxlarni keng yoyib berishga doir fikrlar keltirilgan, shuningdek uni kelgusida rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy-iqtisodiy holat, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi, jamoat xavfsizligini ta'minlash.

ПУТИ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы развития социально-экономических основ общественной безопасности в Узбекистане, ее современное состояние и проводимая в этом направлении работа, а также идеи по широкому распространению реформ, реализуемых в настоящее время в социальной сфере. а также разработаны предложения по ее дальнейшему развитию.

Ключевые слова: Социально-экономическая ситуация, социально-экономические отношения, общественная безопасность, общественный порядок, обеспечение общественной безопасности.

WAYS TO DEVELOP THE SOCIO-ECONOMIC BASIS OF ENSURING PUBLIC SECURITY IN UZBEKISTAN

Annotation: The article discusses the issues of development of the socio-economic foundations of public safety in Uzbekistan, its current state and the work being carried out on it, as well as ideas on the wide dissemination of the reforms currently being implemented in the socio-economic sphere of our country, as well as its future development. Proposals have been developed.

Keywords: Socio-economic situation, socio-economic relations, public safety, public order, ensuring public safety.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta'minlashning milliy tizimini yaratish bo'yicha jiddiy ishlar va keng ko'lamli islohotlar olib borildi, natijada fuqarolarning, umuman, jamiyatning Qurolli Kuchlar tizimiga nisbatan munosabatini tubdan o'zgartirishga erishildi. Shuningdek, mamlakatda jamoat xavfsizligini ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari ham ijobiy tus oldi. Bugun bu yo'nalishning jamiyat hayotidagi taraqqiyot bosqichlari inson sivilizatsiyasi taraqqiyotini belgilab berauvchi asosiy omillardan biriga aylanib ulgurdi.

Insoniyat taraqqiyoti bosqichlari va har bir bosqichga hos bo'lgan iqtisodiy tizimlarni o'rganish iqtisodiy jarayonlarni, ularni o'zgaruvchan ekanligini bilishda muhim ahamiyatga egadir.

Taraqqiyot bosqichlarini bilishda turli xil yondoshuvlar bo'lib, ular madaniylashish (sivilizatsion) darajasi jihatdan, texnika va texnologik taraqqiyot darajasi va ijtimoiy-iqtisodiy shakllar o'zgarishi bo'yicha yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy taraqqiyot bosqichlarini bilishga tarixiy formatsion yondashuvda ishlab chiqarishning ijtimoiy usullari va uning tarkibiy qismlarini tahlil qilishga e'tibor berilgan. Ishlab chiqarish usuli ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish (iqtisodiy) munosabatlarining birligidan iborat.

Ishlab chiqarishning shaxsiy va moddiy omillari, ya'ni ishchi kuchi bilan ishlab chiqarish vositalari birgalikda jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlarini tashkil qiladi.

Boshqacha aytganda, ishlab chiqaruvchi kuchlar - bu ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida kishilar bilan tabiat o'rtasidagi bog'lanishni amalga oshiruvchi shaxsiy va texnik-buyumlashgan elementlar tizimidan iborat. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim mezoni va umumiy ko'rsatkichidir.

Ishlab chiqarish har doim muayyan ijtimoiy shaklga ega bo'ladi. Bu ijtimoiy shakl ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni vujudga keltiradi, ularning mohiyati va asosini ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik munosabatlari tashkil etadi. Kelinglar dastlab Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tushunchasiga oydinlik kiritib olamiz:

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar – bu kishilar uchun zarur bo'lgan hayotiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan munosabatlardir. Ular takror ishlab chiqarish munosabatlari yoki iqtisodiy munosabatlar deb ham ataladi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojining muayyan darajasi ishlab chiqarish munosabatlarining u yoki bu turini taqozo qiladi.

Bu yerda ikki holatga e'tibor berish muhim. Birinchidan, ishlab chiqarish munosabatlari mustaqil, alohida tizimni tashkil qilmaydi. U ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan ham, shuningdek ustqurma bilan ham har doim o'zaro ta'sirda bo'ladi. Ikkinchidan, turli formatsiyalarda o'ziga xos ishlab chiqarish munosabatlari amal qiladi va bu esa har bir formatsiyaga mos keluvchi ishlab chiqarish usulini belgilab beradi.

Insoniyat jamiyati tarixida bir-biri bilan izchil almashinib turgan qator ishlab chiqarish usullari va shunga muvofiq ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar ajralib turadi.

Ishlab chiqarish usullari almashinishining klassik namunasi Yevropada namoyish qilingan deb hisoblanadi. Yevropa hududida bir-biri bilan almashinib, ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodal va kapitalistik munosabatlar izchil tarkib topdi. Boshqa qit'alarga kelganda esa, bu yerda kapitalizmga bo'lgan davrda mana shu marralarning hammasi aniqroq qayd etilgan. Osiyo, Afrika, Avstraliyada Yevropa mustamlakachiligining ta'siri seziladi. Adabiyotlarda Osiyocha ishlab chiqarish usuli deb atalmish usul haqida ham qayd qilinadi. Bu usulning shakllanishida mamlakatlarning katta turkumiga xos bo'lgan ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarining sug'orish tizimlarini markazlashtirilgan tarzda tartibga solib turish va davlatning ana shu sharoitlarda alohida roli bilan bog'liq sifat xususiyatlari aks etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev Xavfsizlik Kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqida bu sohada erishilgan yutuqlar bilan birga ko'p yillar davomida yig'ilib qolgan jiddiy, tizimli muammolar haqida batafsil to'xtalib o'tdi. Bular – kadrlar masalasi, qo'shinlarni zamonaviy qurol-yarog'lar bilan ta'minlash, harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish, yoshlar va harbiy xizmatchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga taalluqli muammolardir.

Bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni bir tizimga solish, Vatanimiz xavfsizligini mustahkamlash, uning mudofaa qobiliyatini kuchaytirishdek g'oyat muhim sohada uchrayotgan muammolarni hal etish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Mudofaa doktrinasi to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonunda mamlakatimizning harbiy qurilishi va Qurolli Kuchlarni rivojlantirish masalalari bo'yicha asosiy yo'nalish va zamonaviy yondashuvlar aks ettirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Milliy gvardiyaga jamoat tartibi va xavfsizligini saqlash kabi muhim vazifalar topshirilganligini ma'lum qildi. "Ma'lumki, - dedi Prezidentimiz, - bugungi kunda biz "Xavfsiz shahar – xavfsiz mamlakat" konsepsiyasi asosida yurtimizda jamoat tartibini ta'minlashga qaratilgan katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Shu munosabat bilan mana shu yangi tuzilma, ya'ni, Milliy gvardiya tashkil etildi. Endi bundan buyon har

bir shahar va viloyatda xavfsiz hudud loyihasini amalga oshirish, jamoat tartibini saqlash uchun Ichki ishlar vazirligi bilan birga Milliy gvardiya mas'ul va javobgar etib belgilanadi. Bu vazifalarni bajarish uchun Milliy gvardiya joylardagi davlat hokimiyati idoralari, jamoat tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikda faoliyat olib boradi.[]

Qisqa vaqt ichida Milliy gvardiya mamlakat xavfsizligini ta'minlash tizimidagi muhim bo'g'inga aylandi va Qurolli Kuchlar tarkibiy qismlari bilan yaqin hamkorlik o'rnatmoqda.

Aytish joizki, hozirgi kunda Milliy gvardiya tizimida o'smirlarni Vatanni himoya qilish bo'yicha o'z burchini ado etishi uchun tayyorlash yuzasidan mamlakatimizning umumta'lim muassasalarida boshlang'ich chaqiruvgacha tayyorgarlikning samarali tizimini joriy etish, o'quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ajralmas tarkibiy qismi sifatida ushbu tizimning samaradorligini oshirish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi Kontsepsiyasida milliy xavfsizlikning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblangan jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat siyosati, uning umumiy qoidadalarida esa "jamoat xavfsizligi", "jamoat xavfsizligini ta'minlash" tushunchasi, jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi milliy manfaatlar, davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, faoliyatning asosiy tamoyili, shuningdek mazkur yo'nalishda chora-tadbirlar hamkorlikda amalga oshirilishi belgilangan.

Jamoat xavfsizligi Kontsepsiyasini amalga oshirish mexanizmlari 2022–2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish Strategiyasi hamda uni 2022 yilda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi"da belgilangan.

Mazkur hujjatlarga muvofiq jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirishga: huquqiy; uslubiy; ilmiy; tashkiliy asoslarini; shakl va usullarini rivojlantirish; shuningdek faoliyatni raqamlashtirish yo'nalishlarida tizimli chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish orqali erishiladi.

Shuni alohida qayd etish joizki, 2022–2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish Strategiyasining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

a) jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, tizimlashtirish hamda mavjud huquqiy bo'shliq va ziddiyatlarni bartaraf etish;

b) jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash va probatsiya faoliyatini uyg'unlashtirish;

v) jamoat tartibini saqlash, shu jumladan ommaviy tadbirlarni o'tkazishga jalb qilinadigan vazirlik va idoralar kuch va vositalarining birgalikdagi harakatlanish algoritmini ishlab chiqish va uni doimiy takomillashtirib borish;

g) jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatiga zamonaviy shakl va ish usullarini hamda ilg'or axborot texnologiyalarini keng joriy etish;

d) jamoat xavfsizligi tizimini raqamlashtirishni 90 foizga yetkazish orqali xizmat faoliyatida inson omilini minimallashtirish;

y) profilaktik hisob, ma'muriy nazorat va probatsiya nazoratidagi shaxslar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishini keskin kamaytirish.

Mazkur vazifalarning samarali va tizimli amalga oshirishi oltita yo'nalish bo'yicha ta'minlanishi nazarda tutilmoqda:

birinchi yo'nalish: jamoat xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asoslarini rivojlantirish;

ikkinchi yo'nalish: jamoat xavfsizligini ta'minlashning uslubiy asoslarini rivojlantirish;

uchinchi yo'nalish: jamoat xavfsizligini ta'minlashning ilmiy asoslarini rivojlantirish;

to'rtinchi yo'nalish: jamoat xavfsizligini ta'minlashning tashkiliy asoslarini rivojlantirish;

beshinchi yo'nalish: jamoat xavfsizligini ta'minlashning shakl va usullarini rivojlantirish;

oltinchi yo'nalish: jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini raqamlashtirish.

Mazkur barcha yo'nalishlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni o'zaro uyg'unlikda hamda bosqichma-bosqich amalga oshirilishini talab qiladi. []

Ayniqsa, a) jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash va probatsiya sohasidagi munosabatlar va vakolatlarni tartibga soluvchi 200 dan ortiq turli xil normativ hujjatlar normalari va qoidalarini birlashtirish orqali;

b) transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish, davlat organlari hamda servis-xizmat ko'rsatish subyektlarining mazkur yo'nalishdagi vazifa va funksiyalarini belgilovchi;

v) ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalarini tartibga soluvchi qonunlar loyihalarini ishlab chiqish va qabul qilish nazarda tutilayotganligi albatta jamoat xavfsizligini ta'minlashni huquqiy tartibga solish sohadagi bo'shliq va ziddiyatlarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, mahalla huquq-tartibot maskanining namunaviy loyihasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, respublika bo'yicha ulari faoliyatini to'laqonli yo'lga qo'yish, jamoat xavfsizligini ta'minlash, guruhiy qonunbuzarliklar va ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish bo'yicha 14 ta (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar) «Hudud metodikasi»ni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish, shuningdek bu sohada huquq-tartibot idoralarning kuch va vositalarini boshqarishning yagona markazlashgan tizimini

tashkil etish bo'yicha amalga oshiriladigan kompleks tizimli chora-tadbirlar albatta vujudga kelishi mumkin bo'lgan tahdid va xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash hamda bartaraf etish imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi.

Jahonda turli xil ko'rinishda tahdid va xavfxatarlar kuchayib borayotgan murakkab va qaltis vaziyatda yangi O'zbekiston jamoat xavfsizligi kontseptsiyasi asosida barchamiz tinch va osoyishta hayotimizni asrash, milliy mustaqilligimizni mustahkamlash uchun yanada jipslashib, hushyor va ogoh bo'lib, dadil va qat'iy harakat qilishimiz zarur. []

Bugungi kunda yangi O'zbekiston davlati har sohada dunyoda o'z yuksak mavqeiga ega bo'lib, yurtimizda so'ngi besh yil davomida bo'lgan o'zgarishlarni xalqaro hamjamiyat ham e'tirof qilmoqda.

O'rganiladigan sohalarda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish bo'yicha chora-tadbirlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, jamoat tartibi va jamoat xavfsizligini muhofaza qilishning quyidagi turlari o'rnatilgan: ma'muriy-huquqiy, operativ-qidiruv, jinoiy-huquqiy va fuqaroviy-huquqiy.

O'zbekistonning xalqaro miqyosda munosib o'rin egallashi milliy va xalqaro ekspertlar tomonidan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasiga muvofiq so'nggi yillarda mamlakatimizda inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilish, qonun ustuvorligi va jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimida amalga oshirilayotgan amaliy ishlarning natijasi deb baholanmoqda.

Fikrimizcha, Ichki ishlar va Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi hamkorligining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish borasida quyidagi taklif va tavsiyalarni inobatga olish maqsadga muvofiq bo'ladi:

birinchidan, jamoat xavfsizligini bevosita ta'minlovchi Milliy gvardiya bo'linmalarining bu boradagi vazifa va vakolatlarini belgilashni nazarda tutgan holda, O'zbekiston Respublikasining "Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi, "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"gi, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi hamda "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonunlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

ikkinchidan, jamoat xavfsizligini ta'minlashda jamoatchilik ishtirokining huquqiy asoslarini kengaytirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasining "Jamoat tartibini saqlashda fuqarolarning ishtiroki to'g'risida"gi qonunini ishlab chiqish hamda unda, fuqarolarning jamoat tartibini saqlashdagi ishtirokini ta'minlashning shakllari, asosiy yo'nalishlari, prinsiplari, bu boradagi chora-tadbirlar hamda ishtirok etuvchi organlar va ularning bu boradagi vakolatlarini (huquq va majburiyatlari) aniq belgilab beruvchi normalarni nazarda tutish;

uchinchidan, jamoat xavfsizligini samarali amalga oshirishda Ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiya tarkibiy bo'linmalarining samarali hamkorligini ta'minlash orqali ular faoliyati natijalarini tizimli monitoring qilish va baholash mexanizmlarini belgilovchi Vazirlar Mahkamasi qarorini ishlab chiqish, unda mazkur subyektlarning

har oy yakuni buyicha xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlarining majlislarida hisobot berishlarini nazarda tutish;

to'rtinchidan, jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonun va normativ-huquqiy hujjatlarda bir-biriga zid normalar paydo bo'lishining oldini olish va bu sohadagi huquq tizimining sifat darajasini oshirish maqsadida ichki ishlar organlari va Milliy gvardiyaning huquq ijodkorligi subyektlari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish.

O'zbekistonda jamoat xavfsizligini ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini rivojlantirish istiqbollari quyidagilardan iborat: aholining umumiy xavfsizligi darajasini oshirish, jinoyatchilikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini kamaytirish, inqirozli va favqulodda vaziyatlarning oldini olish, jinoyatchilik darajasini pasaytirish va uni ochish darajasini oshirish. Xususan, 10 yil ichida kutilmoqda:

- real vaqt rejimida kechayu kunduz tezkor nazoratni o'rnatish; sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda ayrim turdagi jinoyatlarni bashorat qilish va dispatcherlarni ogohlantirish;

- qo'riqlanadigan hududga tasodifiy yoki jinoiy niyatdagi shaxslarning nazoratsiz kirib kelishi xavfini kamaytirish, shuningdek, umumiy mulkni buzish va buzish holatlarining oldini olish;

- tezkor navbatchi qo'shinlar, jamoat xavfsizligini ta'minlovchi xizmatlar (favqulodda vaziyatlar, qo'riqlash, tez tibbiy yordam xizmatlari) va tergov harakatlarini zarur va yetarlicha audiovizual axborot bilan o'z vaqtida ta'minlash; jinoyatchining shaxsini aniqlashdir.

Mamlakatimizda jamoat xavfsizligini saqlash va jamoat tartibini ta'minlashga doir ko'plab ishlarni amalga oshirayotganligini yuqorida izoh etilgan ma'lumotlar orqali ko'rishimiz mumkin. Bunday islohotlarning barchasi xalqimizning xavfsizligini oshirish, ularning erkin rivojlanishi, ta'lim olishi hamda yaxshi daromad olishiga qaratilgan bo'lib, yaqin kelajakda biz ko'zlangan marraga erishamiz desak hech ham xato qilmagan bo'lamiz.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz (Shavkat Mirziyoyev We will resolutely continue the course of democratic reforms based on the development strategy of the New Uzbekistan). <https://president.uz/uz/lists/view/4743>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 23-martidagi "2022-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiyasini 2023 yilda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni tasdiqlash to'g'risida"gi 121-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida"gi O'RQ-647-son Qonuni. 18.11.2020 y.

4. <http://www.lex.uz>
5. <http://www.cyberleninka.com>
6. <http://www.norma.uz>